

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Qushlar ovozini tinglang .Yaproqlar silkinishi kuzating. Bu daqiqalarda siz oddiy inson emassiz siz ung'onayotgan insonsiz.

Qalbgga savol bering “Men hozir qandayman?”

Har kuni bu so'zlarni o'zingizga bering va javob topishga intiling.Bu savolga javob yozsangiz yaxshiroq bo'ladi chunki bu sizning yozayotgan javobingiz qalbingizni davolaydi.

Yuzma-yuz mehr

Chin dildan suhbatlashing.Ko'zlaringa qarab tinglang.Suhbat davomimda albatta telefoningizni chetga suring, chunki bu vaziyatdan foydalanolmay qalasiz.Insoniny yuzma-yuz aloqa- bu qalbimizni to'ldiruvchi eng samimiy vitamin hisoblanadi .

Boshqalarning hayotini kuzatish ruhiyatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bu qanday bo'ladi?.Siz boshqa mashhur insonlarning hayotini kuzatar ekansiz, bunda u mashhur insonlar o'zining eng yaxshi kunlarini qayergadir borganini yoki nimadir sotib olganini ko'rsatadi.Endi sizda noshukrlik paydo bo'ladi. Shuning uchun ruhiyatingda bo'shliq paydo bo'ladi.Asilda siz bilmaydizki,u insonlarnig ham yomon kunlari bo'lgan, ular faqat sizga yaxshi holatlarini ko'rsatadilar .Endi bunga yechim shukr qilish bo'ladi.Bunda siz har kuni shukr qilib, daftarga yozib borsangiz bo'ladi .shunda anglab yetasizki biz shukr qilib tugata olmaymiz va keyin buncha ne'matlar borligini ko'rib ,hayotingizdan rozi bo'lasiz va bu judayam quvonarli holat

Xulosa qilib aytganda :E'tibor inson ruhing so'nggi qal'asi

Bugun bizni o'zligimizdan ayirayotgan urush bor .Bu urushda qurollar yoq lekin qurbonlar juda ko'p.

Lekin hali kech emas , negaki siz bu satrlarni o'qib shu yergacha kelgan bo'lsangiz unutmangki siz bu yo'lda birinchi qadamingizni tashladingiz siz bu satrlarni o'qish davomida fikrladingiz, agar siz bu satrlarni o'qimaganingizda fikrlarmidingiz? Alabatta ,yo'q.

Bu satrlarni oqigan bo'lsangiz albatta qo'ingizdan keladi ,chunki agar sizni bu **E'TIBORSIZLIK**DAN qutultirishni xohlagan, sizni yo'qdan bor qilgan zot izni ila o'qidingiz, endi bu **E'TIBORSIZLIK**DAN qutulishni ham uddalaysiz.

E'tibor bu faqat diqqat emas. bu bizning eng go'zal insoniylik tuyg'ularimizning boshlanishi.

ADABIYOTNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI: KAZI NAZRUL ISLOM IJODI MISOLIDA

Aminova O'g'iloy Xolmurod qizi

*2008-yil 15-oktabrda Qoraqalpog'iston respublikasi
To'rtko'l tumanidagi Yoshlik mahallasida tavallud topgan.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

• KIRISH

Adabiyot – bu inson qalbining ichki tovushidir. Uni har kim boshqa-boshqa eshitadi, ammo yurakda qandaydir o‘xshash tebranish uyg‘otadi. Hayotimizda adabiyot bor ekan, demak, biz hali his qilishga, o‘ylashga, orzu qilishga layoqatlimiz. Aynan shu sababli, u shunchaki san‘at emas, balki insoniyatni o‘zgartiruvchi kuch, ma’naviy taraqqiyot omili sifatida mavjud.

• Bu kuchni o‘z ijodida namoyon qilgan shoirlardan biri – Kazi Nazrul Islomdir. U hindistonlik bo‘lishiga qaramay, uning so‘zi butun insoniyat qalbiga tegadi. U faqat she‘r yozmadi – u tinimsiz kurashdi: zo‘ravonlikka, adolatsizlikka, jaholatga qarshi. Demak, adabiyot – faqat estetik zavq emas, balki hayotiy pozitsiya, ruhiy uyg‘onishning ibtidosidir. Aynan shuning uchun ham men uning ijodini sevib mutolaa qilaman va uning ijodining chuqur ma’noga ekanligini butun dunyoga tanitishni istayman.

• Adabiyotning hayotdagi o‘rni

Hayotda har bir inson ichki kurashni boshdan kechiradi: ba’zida qo‘rqadi, ba’zida umid qiladi, ba’zida esa tushkunlikka tushadi. Adabiyot ana shu lahzalarda insonga ichki yorug‘lik bag‘ishlaydi. U ko‘rsatmaydi – his qildiradi. U o‘rgatmaydi – uyg‘otadi.

Shoirlarning she‘rlarida ko‘rinadigan oddiy so‘zlar aslida katta fikrlar, ichki kechinmalarni yashiradi. Ularga murojaat qilgan kishi o‘zini topadi, ichki haqiqatini anglaydi. Ayniqsa, yoshlar uchun adabiyot – ruhiy tayanch, kelajakka ishonch bag‘ishlovchi manbadir.

• Kazi Nazrul Islom: hayoti va ijodi

Kazi Nazrul Islom – 1899-yil Bengaliya hududida tug‘ilgan. Uning hayoti oddiy o‘tmagan: kambag‘allik, jang maydonlari, siyosiy tazyiqlar, ammo aynan shu sharoitlar uni shoir emas, xalq vakiliga aylantirdi. U “Bidrohi Kobi” – “Qo‘zg‘olonchi shoir” degan nom bilan tanilgan.

Nazrul ozodlikni so‘z bilan tarannum etdi. U har bir she‘rida jamiyatning befarqligiga, mustamlaka zulmiga, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi chiqdi. Shoir bir necha bor qamoqqa olindi, ammo so‘zidan, pozitsiyasidan qaytmadi. U uchun she‘r – bu yurakni yondiradigan olov edi.

• Ijodidagi asosiy g‘oyalar: ozodlik va insonparvarlik

Nazrulning eng mashhur asarlaridan biri – “Bidrohi” (“Qo‘zg‘olonchi”) she‘ridir. Bu she‘rda u o‘zini na musulmon, na hind, na boshqa millat vakili deb ataydi – u inson, u qarshilik timsoli. She‘rda shoir g‘azab, sevgi, azob va qudratni bir vaqtning o‘zida ifodalaydi:

“Men bo‘ronman, men dovulman,
Men yong‘inman, men to‘fonman!”

Bu satrlar zahirida kuchli ichki chaqiriq bor. U yoshlarni uyg‘otishga, qo‘rquvdan voz kechib, yashash, kurashish, so‘z aytish jasoratini topishga undaydi. U millatlar, dinlar orasidagi devorlarni buza oldi – she‘r orqali. Chunki adabiyot qalblarni ajratmaydi, bog‘laydi.

• Nazrul Islom va bugungi yoshlar

Bugun Nazrul Islom ijodi yodga olinayotgan bo‘lsa, bu bejiz emas. Chunki yoshlar hamon erkinlik istaydi. Ular hamon tenglikka, adolatga, o‘z ovozigacha ega bo‘lishni xohlaydi. Va ularning qalbi bu ovozni adabiyotdan topadi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Nazrul singari shoirlar bizga faqat she'r emas, yo'l ko'rsatadi. O'zbek adabiyotida ham Cho'lpon, Usmon Nosir singari ijodkorlar xuddi shu yo'lda borishgan – ular ham adabiyot orqali xalq ruhiga ozodlik tuyg'usini singdirgan. Demak, bu yo'l – doimiy, hech qachon yo'qolmaydigan yo'l.

• Xulosa

Adabiyot – bu inson qalbining eng chuqur joylariga kiradigan yagona kuch. U so'z vositasida ongimizni uyg'otadi, yuragimizga hayot tomchilarini soladi. Kazi Nazrul Islom – adabiyot orqali ozodlik, jasorat, insoniylik g'oyalarini targ'ib etgan buyuk shoir. Uning ijodi bugun ham yosh avlodga yo'l ko'rsatmoqda.

Adabiyot bor joyda ruhiy tiriklik bor. Adabiyot bor joyda jamiyat o'zgaradi. Demak, uni qadrlash, tushunish va yurak bilan his qilish – eng katta boyligimizdir.

• FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazrul Islam, Kazi. *Selected Poems*. Dhaka University Press, 2001.
2. Karimov A. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020.
3. Akhter, Nasrin. “The Revolutionary Voice of Kazi Nazrul Islam.” *International Journal of Literature and Arts*, 2018.
4. Sayfiyev S. *Zamonaviy o'zbek adabiyoti*. Toshkent, 2018.

YURTIMIZ MATBUOT SOHASINING RIVOJIDA JADIDLARNING AHAMIYATI

Ergasheva Marjona Xidir qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yurtimizning matbuot sohasi rivojida jadid harakatining ahamiyati haqida ma'lumotlar mavjud. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida musulmon dunyosida, xususan, Turkiston o'lkasida yuzaga kelgan ma'rifatparvarlik va islohotlar harakati bo'lib, u yangi maktablar ochish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot va matbuot orqali xalqni uyg'otishni maqsad qilgan edi.*

Kalit so'zlar: *Axborot, matbuot, jadidchilik, gazeta, jurnal, "Taraqqiy", "Shuhrat", "Sadoi Turkiston", "Hurriyat", maqola.*

Jamiyatda axborotning o'rni nihoyatda katta hisoblanadi. Axborot – bu to'g'ri va tez qarorlar qabul qilish uchun zarur asosdir. Har qanday sohada – siyosat, iqtisod, ta'lim yoki tibbiyotda – dolzarb va ishonchli ma'lumotlar qarorlar sifatini belgilaydi. Shuningdek, fan, texnika, va